



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI

Abdujaborova Ma'mura Toshmuxamadovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Uiversiteti dotsenti, PhD.

Aminova Guzal Normuminovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14235502>

Moliyaviy natijalar xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining pirovard natijasi bo'lib, foyda yoki zarar shaklida ifodalanadi. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarish barcha bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir.

Sof foyda har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining muhim natijaviy ko'rsatkichi hisoblanadi. Sof foyda hajmi korxona rahbariyati va mulkdorlar bilan birga investorlar, kreditorlar va boshqa iqtisodiy subyektlar uchun ham manfaatli hisoblanadi.

Jumladan, mulk egalari faoliyat samaradorligini aniqlash, investorlar xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion jozibadorligini baholash, kreditorlar va banklar to'lovga qobiliyatlik va kreditga layoqatlilikni belgilashdan manfaaddir.

Bir guruh iqtisodchi olimlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi foyda olish ekanligini ta'kidlagan. Ular foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonunini va xo'jalik yuritish usuli sifatida foydalanadigan xo'jalik hisobining obyektiv talabi deb, hisoblashadi[4].

M.Yu.Raximov biznesni harakatga keltiruvchi kuch faoliyatning yakunida erishiladigan foyda, deb hisoblaydi. Shu bois, foyda mulk shaklidan qathiy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini baholashning yagona ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Shuningdek, foyda maqsadli harakatning rag'batidir. Tijorat faoliyati va uning davomiyligi ko'pincha ushbu unurning hajmiga, to'g'ri taqsimotiga va ishlatilishiga bog'liq [5].

Aynan sof foyda xo'jalik yurituvchi subyektlarga moddiy bazani mustahkamlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish uchun resurslarni yo'naltirish, texnologiyani takomillashtirish va faoliyat yuritishning ilg'or usullarini o'zlashtirish imkonini beradi. Bularning barchasi xo'jalik yurituvchi subyektning yangi ta'minot bozorlariga chiqishi, sotish hajmini kengaytirish, natijada sof foyda hajmining o'sishiga olib keladi[3].





Sof foyda ko'p komponentli ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga hisoblashda qo'llaniladigan har bir parametr murakkab tuzilishga ega. Jumladan, mahsulot(ish, xizmat) sotishdan sof tusham, mahsulot (ish, xizmat) tannarxi faoliyat yo'nalishlari bo'yicha farqlanadi, turli tuzilishga ega.

Sof foyda tahlili gorizontal, vertikal, omilli tahlil usullaridan foydalanib tahlil qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda foyda va zararlarni tahlil etishdan maqsad joriy davrda moliyaviy natijalar hajmi va sifatiga baho berish, o'zgarish tendentsiyalarini o'rganish va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir[1].

Foyda va zararlar tahlilining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
foйда va zararlar tarkibi, tuzilishi va dinamikasiga baho berish;
faoliyat turlari bo'yicha foyda hajmi va sifatini o'rganish;
foйда hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
sof foyda va sof tushum nisbatiga baho berish;
foйда hajmini oshirishning ichki va tashqi imkoniyatlarini o'rganish.

Foydaga erishish uchun yangi ishlab chiqarish liniyalari yaratiladi, moddiy va mehnat resurslaridan intensiv foydalaniladi, daromadlilikni oshirishning samarali usullari topiladi.

Odatda xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati, xususan dastlabki bosqichlarda unga kutilgan sof foyda hajmini olib kelmaydi. Bu holatda odatda qo'shimcha faoliyat turlari yaxshi daromad hajmini ta'minlaydi. Jumladan, boshqa iqtisodiy subyektlarning faoliyatida qatnashish, bo'sh turgan asosiy vositalarni ijaraga berish.

Shuningdek, aksar hollarda davr xarajatlarining nihoyatda ko'pligi asosiy faoliyat foydasining kamayishiga sabab bo'ladi[2].

Xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatida qarz mablag'laridan foydalanayotgan bo'lsa, kredit to'lovlari va ular bo'yicha foizlar miqdori ham bevosita sof foyda hajmini kamaytiradi.

Sof foyda tahlili gorizontal, vertikal, omilli tahlil usullaridan foydalanib tahlil qilinadi.

Foyda ko'rsatkichi korxonada qiymatni qayerda o'stirish lozimligini ko'rsatib beruvchi signal hisoblanadi, ushbu sohani investitsiyalash uchun rag'bat yaratadi. Korxonaning o'zi foydani tahlil etish jarayonida o'z faoliyatining samaradorligi, mustahkamligi, moliyaviy mustaqilligi va barqarorligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi, shuningdek, istiqbolli rejalarni tuzish, investitsion kapitalni jalb etish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish, aktivlardan oqilona





foydalanish orqali kelgusida korxona faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda yuqori foydaga erishish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish, mahsulot tannarxini kamaytirish, yuqori texnologiyali asosiy vositalarni joriy etish hamda ularni o'z vaqtida yangilanishini ta'minlash, xodimlarning malaka darajasini oshirish, mehnatni to'g'ri tashkil qilish va boshqarish lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Abdujaborova M.T. Moliyaviy hisobot tahlili: O'quv qo'llanma – T.: "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2024. – 187 bet.
2. Abdujaborova M. (2024). Rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili. Moliya va Bank ishi, 10(3), 10–17. Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/217>
3. Abdujaborova M.T. Korxona foydasini boshqarish va tahlil etishning ahamiyati. TDIU, Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali. 2019, 1-son, 177-180 betlar. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». Darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2013, 600 b.
4. Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. T.; «Iqtisod-moliya», 2015, 290 b.

